

**TIBBIY XIZMAT NATIJASIDA KELIB CHIQQAN INSON HAYOTI VA SOG'LIG'I
UCHUN XAVFLI BO'LGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Tashmatov Ulugbek Nuritdin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

“Tergov faoliyati” yo'nalishi magistranti.

(100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrabsabz ko'chasi, 42)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13340553>

Annotatsiya. Ushbu tezisda tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan inson hayoti va sog'ligrni uchun xayfli bo'lgan jinoyat mavzusining asoslanishi va dolzarbliji, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tadqiqot mavzusining asoslanishi va dolzarbliji, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati tushunchalari.

**CHARACTERISTICS OF THE INVESTIGATION OF CRIMES DANGEROUS TO
HUMAN LIFE AND HEALTH ARISING AS A RESULT OF MEDICAL SERVICES**

Abstract. In this thesis analyzes the rationale and relevance, goals and objectives, scientific novelty, theoretical and practical significance of crimes committed by medical services that are dangerous to the life and health of people.

Key words: concepts of validity and relevance of the research topic, goals and objectives, scientific novelty, theoretical and practical significance.

**ХАРАКТЕРИСТИКА РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, ОПАСНЫХ ДЛЯ
ЖИЗНИ И ЗДОРОВЬЯ ЧЕЛОВЕКА, ВОЗНИКАЮЩИХ В РЕЗУЛЬТАТЕ
ОКАЗАНИЯ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ**

Аннотация. В данном тезисе анализируются обоснование и актуальность, цели и задачи, научная новизна, теоретическая и практическая значимость опасных для жизни и здоровья людей преступлений, совершенных медицинскими услугами.

Ключевые слова: понятия обоснованности и актуальности темы исследования, цели и задачи, научная новизна, теоретическая и практическая значимость.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida, “Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minalash choralarini ko‘radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli Farmoniga ko‘ra, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning II bobida nazarda tutilgan mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishda Jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligi takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish lozimligi belgilangan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganidek, “Ayni vaqtida biz Konstitutsiyamiz normalarini hayotga to‘la tatbiq etish, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini, inson huquq va manfaatlari, uning qadr-qimmatini yanada samarali ta’minalash borasida hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tasavvur qilamiz. Oldimizda turgan vazifalarni amalga oshirish uchun Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida keng ko‘lamli islohotlarimizni izchil davom ettiramiz”[3].

Ana shunday sa’y-harakatlarimiz tufayli birlamchi va malakali tibbiy xizmatlar aholining keng qatlamlariga kirib bormoqda. Buning tasdig‘ini 2023-yilning o‘zida joylarda 22 ta oilaviy poliklinika, 93 ta oilaviy shifokorlik punkti va 394 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etilib, birlamchi tibbiy xizmatlar 2 million 100 ming nafardan ziyod aholiga yaqinlashtirilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu haqda so‘z yuritganda, 8 million 600 ming nafar aholi profilaktik tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ularning 685 ming nafari ambulator, 72 ming nafari esa statsionar sharoitda sog‘lomlashtirilgani, skrining tekshiruvlari orqali 167 ming nafar yurtdoshimizda yurak-qon tomir, 52 ming nafarida qandli diabet kasalligi aniqlanib, ularning salomatligini tiklash choralar ko‘rilganini ta’kidlash lozim. Ayniqsa, tug‘ma yurak nuqsoni bo‘lgan 2 ming nafar bolaning davlat hisobidan operatsiya qilingani yosh avlodga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishning yana bir yorqin namunasi bo‘ldi.[4]

Afsuski, sog‘liqni saqlash sohasi jadal rivojlanib kasalliklarga tashxis qo‘yish va davolashning yuqori samarali usullari, kompyuter texnologiyalari joriy etilganiga qaramay, tibbiyot xodimlarining kasbiy va xizmat vazifalarini bajarmasliklari yoxud lozim darajada bajarmasligi holatlari ko‘payib bormoqda va o‘z navbatida mazkur muammo doimo tibbiyot va huquqshunoslikning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Butunjahon Sog‘lijni saqlash tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, “Jahonda bemorlarning 23% ga tibbiy yordam ko‘rsatilmagan yoki lozim darajada ko‘rsatilmagan, 0,7 % holatda esa malakasiz tibbiy aralashuv oqibatida ularning hayotiga xavf solinib, vafot yetgan”. “Har yili o‘rtacha AQShda 100 ming, Buyuk Britaniyada 70 ming, Italiyada 50 ming, Germaniyada 25 ming, Avstraliyada 18 ming, Vengriyada 10 ming, Isroilda 9 ming, Bolgariyada 7 ming hamda Ispaniyada 3 ming kishi tibbiyat xodimlarining o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida vafot etadi”[5. 4].

So‘ngi yillarda sog‘lijni saqlash va boshqa tizimlarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida tibbiyat va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi xususiy tadbirdorlik subyektlarining soni ortganligi xam mazkur jinoyatlarni o‘sishiga sabab bo‘lmoqda.

Tibbiy xizmat natijasida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish tergov faoliyatining juda ko‘p mehnat talab qiladigan turi hisoblanib, tergovchilardan aniq va maxsus kasbiy bilimlar yordamida tergov harakatlarini olib borish talab etiladi.

Bundan tashqari, amaliyotda sud-tergov xodimlari ushbu jinoyatlarni tergov qilishda, xattiharakatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda moddalar raqobatiga duch kelib, ko‘p hollarda tergov harakatlari to‘liq o‘tkazilmasligi, normaning blanketligi turli qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Shunday ekan, mazkur jinoyatlarni tergov qilishda jinoyat-protsessual vositalar yordamida kurashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tibbiyat xodimlari tomonidan inson salomatligiga etkazilgan zarar yuzasidan tergov o‘tkazish va tibbiy xatoni isbotlash ikki soha - tibbiyat va huquq uchun ko‘p mehnat talab qiladi hamda muammoli hisoblanadi. Ushbu muammoning jiddiyligi tibbiy xatolar to‘g‘risida yagona va umumiyligini qilingan tushunchaning yo‘qligi, to‘g‘ri tergov harakatlarini o‘tkazish va malakalash, harakat va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish munosabatlarini o‘rnatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, mavjud choralarining past samaradorligi, tibbiy xatolarning oldini olish, tergov harakatlari nostandart o‘tkazilishi, sud-tibbiy ekspertizalarni o‘tkazish uchun muqobil organning yo‘qligi va boshqa holatlar sabab bo‘lmoqda.

Mazkur ishi mavzusining dolzarbliji hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ayni shu holatlar bilan belgilanadi.

Maqsad va vazifalari. Sog‘lijni saqlash sohasidagi jinoiy holatlar va murojaatlar asosida jinoyat-protsessual muammolarni har tomonlama o‘rganish, tibbiyat xodimlari tomonidan inson salomatligiga zarar yetkazish, shuningdek, tergov tartibini takomillashtirish, mazkur jinoyatining kriminalistik tavsifini kompleks yuridik tahlil qilish, qonunni qo‘llash amaliyotida yuzaga

kelayotgan tergov va kvalifikatsiya qilish muammolarini o‘rganish, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ishning maqsadi hisoblanadi.

Quyidagi **vazifalar** qo‘yildi:

- Tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan jinoyatlarning kriminalistik tavsifini tahlil qilish;
- Tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan jinoyatlarning tergov qilish uslubiyatini shakllantirish;
- Tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan jinoyatlarning tergov va kvalifikatsiya qilish muammolarini yoritish;
- Tibbiyot xodimlari tomonidan inson hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish holatlari bo‘yicha tergov o‘tkazishda dalillarni to‘plash jarayoni va tergov o‘tkazishda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining qo‘llanilishi;
- Xorijiy davlatlarda tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan jinoyatlarning tergov qilish xususiyatlari va javobgarlikning o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilish;
- Tergov va jinoiy javobgarlik bo‘yicha amaldagi qonun normalarini takomillashtirish va uni qo‘llash amaliyotini yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ishining obyekti va predmeti. Tibbiyot xodimining o‘z kasbiga beparvoligi yoki insofsiz munosabatda bo‘lishi tufayli kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida vujudga kelgan jinoyatlarni tergov qilish yuzasidan vujudga keladigan munosabatlar tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan jinoyatlarni tekshirishga qaratilgan faoliyatni, uni amalga oshirish amaliyotini, surishtiruv va tergov organlari faoliyatini optimallashtirish va samaradorligini oshirishning qonuniyatlari va usullarini tartibga soluvchi jinoyat-protsessual normalari, o‘rganilayotgan muammoga doir ilmiy ishlar, shuningdek, ko‘rsatilgan toifadagi ishlar bo‘yicha sud-tergov amaliyoti tashkil etadi.

Ishning ilmiy yangiligi shu bilan belgilanadiki, O‘zbekiston Respublikasida tibbiy xizmat yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik holatlarini tergov qilish va jinoiy javobgarlik muammolarini kompleks o‘rganish hamda tahlil qilish borasidagi urinishlardan biri hisoblanadi.

Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatiga qarshi kurash sohasidagi amaldagi qonun hujjatlarining qiyosiy-huquqiy va kompleks tahlili asosida ularning takomillashtirishni talab etadigan eng muhim va kam o‘rganilgan qoidalari aniqlandi.

Tadqiqot natijasida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy muammolarning o‘ziga xos yechimi sifatida yangi tushunchalar, tergov

uslubiyati, kriminalistik tavsif, ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib asoslab berildi.

Mazkur tadqiqot ishi jinoyat va jinoyat protsessi qonunchiligini takomillashtirish jihatidan chuqur o‘rganish va uning mohiyati haqidagi ilmiy tasavvurlarni rivojlantirishning ijtimoiy-huquqiy asoslarini tadqiq etishga qaratilgan.

Tadqiqotining **amaliy ahamiyati** shundan iboratki, olingan natijalardan jinoyat va jinoyat protsessi qonunchiligini takomillashtirish borasidagi qonunchilik faoliyatida, tibbiyot xodimlari tomonidan inson sog‘lig‘iga zarar yetkazish faktlari bo‘yicha tergov qilish va qonunni qo‘llash amaliyotini yanada yaxshilash, shuningdek, mavzuga oid darsliklar, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va boshqa ilmiy izlanishlarda foydalanilishi mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigi ma’ruza // www. president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash sohasi xodimlariga bag‘ishlangan bayram tabrigi ma’ruza // <https://president.uz/oz/lists/view/6855>
5. Xaydarov Sh.D. Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari. Monografiya: - 2021 y. 4-b.